O'ZBEKISTON RESPUBLIKACI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

# EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA

FANI BO'YICHA

## MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USLUB VA VOSITALARI

(talabalarga yordam tariqasida)

- Ilmiy adabiyotlarni o'qish
- Axborotni yozma ravishda uzatish
- Axborotni og'zaki ravishda uzatish
- Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari: grafik tashkil etuvchilar
- Hamkorlikdagi o'qishni tashkil etish usul va vositalari
- Muammoni jamoali tarzda hal etish, uni hal etish bo'yicha ustuvor g'oyalarni tanlash va baholash usullari va vositalari
- Amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari: keys-stadi
- Loyihalashtirish faoliyati uslublari va vositalari

Buxoro - 2021

**"Tasdiqlayman"**
**Psixologiya kafedrasi mudiri**
**_________A.M.Nazarov**

Ushbu uslubiy ko'rsatmada talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkillashtirishning uslublari va vositalari ochib berilgan: grafik tashkil etuvchilar, qo'shma va o'zaro o'quv texnikasi, loyihalash faoliyati. Ilmiy adabiyotlarni o'qish, ma'lumotlarni og'zaki taqdim etish, amaliyot holatlarni tahlil qilish va yechish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kitobda mustaqil faoliyatni tashkillashtirishdagi ehtimolli xatolarning oldini olish bo'yicha amaliy maslahatlar keltirilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma nafaqat bakalavriatning talabalariga balki magistrantlar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.


| | | |
|---|---|---|
| Tuzuvchilar: | **Olimov L.Ya.** | **psixologiya kafedrasi dotsenti** |
| | **Ostanov Sh.Sh.** | **psixologiya kafedrasi v.b. dotsenti** |
| Taqrizchilar: | **Jumayev U.S.** | **ps.f.n., dotsent** |
| | **Avezov O.R.** | **dotsent** |




## Talabalarga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori ijrosini amalga oshirishda Buxoro davlat universiteti o'qituvchilari o'quv fanlari bo'yicha yaxlit ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amalga oshirish ishlarini keng qamrovli olib bormoqdalar.

Mualliflar tomonidan taqdim etilgan ta'lim texnologiyalarida yangi o'qitish modeli qo'yidagilarga asoslangan:

- ta'limning har bir shaxsga yo'naltirilganlik va tizimli yondashuv, ta'lim sub'ektlari munosabatlarini demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishiga;
- ta'limda talabalar roli o'zgarishiga: o'quv faoliyatini mustaqil olib boruvchi ta'lim jarayonining teng huquqli sub'ekti;
- ta'limda o'qituvchining roli o'zgarishiga: mustaqil o'quv faoliyatining tashkilotchisi, talabalarining savodli maslahatchisi va yordamchisi. Talabalar bilimi, ko'nikmalari, mahoratlarining nazoratini hamda ehtimolli og'ishlarni o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning bilim darajasi diagnostikasini ta'minlaydi;
- ta'limning uslublari va vositalarining o'zgarishiga: (1) muammoli holatlar, faol ijodiy-tadqiqiy faoliyatni yaratishga asoslangan, muammolarni qidirish va yechish, bilimlarni amalda qo'llashga yo'naltirilgan faol va interfaol usullar an'anali bo'lib qolmoqda; (2) jamoa va guruh ishlari keng qamrovli ta'lim shakliga nisbatan ko'paymoqda; (3) axborot texnologiyalari ta'limning an'anaviy vositalari bilan bir qatorda keng qo'llanmoqda; o'quv materiallari ta'lim olayotganlar tomonidan bilimlarni mustaqil qidirish uchun foydalanilmoqda;
- pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o'zgarishiga: o'qituvchi muammolarni aniqlashga, g'oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas'uldor menejerga aylanmoqda. U nafaqat pedagogik balki talabalarning o'quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejalashtiradi, ya'ni qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va o'quv faoliyatining rejalashtirilgan natijalariga erishish bo'yicha qo'shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishda va o'quv faoliyatini tashkillashtirishda talabalarni qo'llab-quvvatlaydi, ta'lim jarayonini o'quv dialogi va polilogi sifatini tuzadi.

Shu bilan birga, o'qituvchilar – loyihalashtiruvchilar talabalarning yangi ta'lim modellari bo'yicha qurilgan ta'lim jarayoniga tayyor emasligiga duch kelashadi. Bu talabalarning ta'lim sub'ekti sifatida ta'sir etmasligida va o'qituvchilar tomonidan taklif etiladigan o'quv faoliyatining uslub va vositalarini amaliy qo'llash qo'nikmalarining yo'qligida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida birinchi bosqich talabalari quyidagi qo'nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

(1) *ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil faoliyat ko'nikmalari*: asosiy qoida va xulosalarni qisqa, chizma shaklida va ketma-ket yozib